

Date: 7thDecember-2024

PEDAGOGIK FAOLIYATDA BOLALAR JISMONIY MADANIYATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o‘g‘li

International school of finance technology and science instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi mudiri, Psixologiya fanlari doktori, (DSc)

Habialihev Samandar Nazarali o‘g‘li

International school of finance technology and science institute Pedagogika,
1-kurs 24-PD-01 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ta’lim jarayonida ruhiy va jismoniy salomatli bolaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omil sanalib, shu o‘rinda pedagog tomonidan pedagogik faoliyatda bolalar jismoniy madaniyatini oshirish darsning muhim vazifasiga aylangan. Ushbu maqolada bolalar jismoniy madaniyatini oshirishning psixologik xususiyatlarini va bu jarayonda pedagoglarning o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, jismoniy madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar, jismoniy kamolot.

Аннотация: В процессе обучения психически и физически здоровый ребенок рассматривается как фактор, влияющий на успеваемость, и на этом этапе важной задачей урока для педагога становится повышение физической культуры детей в педагогической деятельности. В данной статье рассматриваются психологические особенности совершенствования физической культуры детей и роль педагогов в этом процессе.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, физическая культура, общечеловеческие ценности, физическая зрелость.

Abstract: In the process of education, a mentally and physically healthy child is considered as a factor influencing academic performance, and at this stage, an important task of the lesson for the teacher is to improve the physical culture of children in pedagogical activity. This article examines the psychological features of improving the physical culture of children and the role of teachers in this process.

Keywords: pedagogical activity, physical culture, universal values, physical maturity.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizda bolalar salomatligini saqlash va ularni saqlash davlat dasturlarining muhim bandlarida o‘z aksini topmoqda. Jismoniy madaniyat barcha insonlar hayotida va insonning umumiyl rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar va bolalar uchun jismoniy faoliyat sog‘lom va jismonan rivojlanishi hamda bolalarni psixologik tomondan ruhiy va intellektual shakllanishini taminlaydi. Pedagogik faoliyatda bolalar jismoniy madaniyatini rivojlantirish jarayonida ularning yoshga oid psixologik hususiyatlarini hisobga olish zarur.

Asosiy qism: Jismoniy madaniyat – umumiyl madaniyatning bir qismi, jamiyatning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to‘plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi madaniy va ma’naviy boyliklar majmuasi. Jismoniy tarbiya va bolalarni rivojlantirish

Date: 7thDecember-2024


nazariyasi ilmiy fanlarni kompleksi bilan bog‘liq jismoniy madaniyatini shakllantirish hamda tashkil etishning ijtimoiy qoidalarini, jismoniy mashqlarning bola tanasi va ruhiyatiga ta’sirini, shuningdek, pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari va usullaridan foydalanishni o‘rganadilar.

Jismoniy madaniyat hamda psixologiya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, ya’ni bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirishda bolaning psixologiyasi va ruhiy holati muhim muhim o‘rin tutadi. Chunki bola jismonan sog‘lom bolishi uchun uning ruhiy holati barqaror bo‘lishi zarur. O‘z davrining mashhur rus pedagogi K.D.Ushiniskiy tomonidan ta’kidlanganidek, pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerak”, ushbu fanlar orasida esa psixologiya markaziy o‘rin egallashini aytib o‘tgan.

Bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari haqida gap ketar ekan, avvallo, jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojiga munosib hissa qo‘sishishi, uning ruhiy, ma’naviy, axloqiy taraqqiyotiga asos bo‘lishini ta’kidlab o‘tish joiz. Shuningdek, insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlar, do‘stlik, insonparvarlik, mehrbonlik, oqibat, sahovat kabi xususiyatlarni mustaxkamlaydi. Bu jarayonda pedagog darslarini mazmunli va qizqarli, kreativ olib borishi kerak. Bunda pedagoglar o‘quvchilar bilan harakatli o‘yinlar o‘tkazishlari kerak, shu bilan bir qatorda, bolalar gigiyenasiga e’tibor qaratish ham zarur. Shunda bolalar jismonan sog‘lom va psixologik jihatdan ruhan barqaror bo‘ladi. Jismoniy mashqlar orqali erishilgan natijalar bolalarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, harakat orqali bolalardagi stressni bartaraf etadi. Jismoniy sport mashg‘ulotlari bolalarni muloqot qilishga ham o‘rgatadi. Bolalarning jismoniy faoliyatga bo‘lgan munosabati ularning psixologik rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

Pedagoglar dars jarayonida bolalarni jismoniy faoliyatini rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanishlari kerak. Bunda turli jamoviy o‘yinlar va musobaqalar tashkil qilish, bolalarni rag‘batlantirish samarali natija beradi. Ushbu jarayon bolalarda jamoviy ishlash, muloqotga kirishish va o‘ziga ishonchni ortishini rivojlantiradi va bu jarayon uchun turli metodlarni misol qilib keltirish mumkin. Misol uchun, shunday metodlardan biri o‘yin metodi bo‘lib, qadim zamonlardayoq paydo bo‘lgan o‘yin insonni hayotga taylorlashning eng ahamiyatli va shakli metodi hisoblangan. Shu o‘rinda jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining boshqa fanlar bilan aloqadorligi umuinsoniy madaniyat tizimida birlashtiriladi (1-rasm), [3, 11].

Date: 7thDecember-2024



1-rasm. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Jismoniy madaniyat tizimida o‘yinlar – ta’limiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish vazifalarini hal etishi zarur. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faolyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolalarning kelajakdagi o‘quv va mehnat faoliyatini uyg‘unlashuviga olib kelib, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O‘yin faoliyati asosida boladagi bilish faolyati rivojlanadi, bola qancha yahshi o‘ynasa, u mактабда ham shunchalik yahshi o‘qiydi. O‘yin metodini ya’ni o‘yin jarayonini psixologlar bog‘cha yoshi davridagi yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yinda bola shaxsining har tomonlama bir biriga o‘zaro ta’sir etgan holda shakllanadi.

Xulosa: Pedagogik faoliyatda bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirishda psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur. Bu nafaqat bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga, balki ta’lim sifatiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagoglarni vazifasi bolalarni harakat va sog‘lom turmush tarziga qiziqtirish orqali ularda jismoniy madaniyatni rivojlantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamatov, H. (2023). Socio-psychological problems of children in migrant families and their solutions. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 06005). EDP Sciences.
2. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). Мехнат мигрантлари оиласаридағи хаёт мазмунининг йўналганлик ҳолати. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 663-670.
3. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma / Asqarov Faxritdin Alisherovich. – N., 2022, 204 bet

Date: 7thDecember-2024

4. Djamolova N.N. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyasi.
5. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
6. Raximov B, Narziyeva N. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston: “SamDCHTI” nashriyoti. 154 bet.